



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 2/2 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 2/2

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 2/2



ТОШКЕНТ-2026

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№2/2 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-2/2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'affor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)
Umarxonova Dildora Sharipxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nematov Jo'rabek Nematilloevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)
Mexmonov Kambariddin Miradxamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)
Borut Strazisar
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕХНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxonovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliyev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzayev Aziz
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)
Qo'shayev Nurali Mahmudovich
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)


1. Мухамедов Хайдарали Мелиевич ЎРТА АСРЛАР ҲУҚУҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ҲУҚУҚҚА ТАЪСИРИ: ТАРИХИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ.....	5
2. Мирзаев Файзулла Ибодуллаевич ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИНСТИТУЦИОНАЛ ИСЛОҲОТЛАР ШАРОИТИДА ЖИНОИЙ ДАРОМАДЛАРНИ ЛЕГАЛЛАШТИРИШГА ҚАРШИ КУРАШИШНИ ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТДАН ТАЪМИНЛАШ МАСАЛАЛАРИ.....	14
3. Авлиякулова Матлуба Авазовна КОРПОРАТИВ ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШ БИЛАН БОҒЛИҚ МИЛЛИЙ ҚОНУНЧИЛИКНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.....	22
4. Baratov Mirodiljon Xomudjonovich, Akramxodjaye Bori Toxtaxodjaye Bori TURISTIK MAHSULOTNING XUSUSIYATLARI VA BU SOHADAGI RAQOBATBARDOSHLIK.....	29
5. Ergasheva Shohista O'ktam qizi KRIPTOVALYUTALARNING TRANSFER JARARAYONIDA QO'LLANILADIGAN HUQUQ MASALASI.....	39
6. Абжалов Абдижаббор Махаммадиевич ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРИНИНГ ЖАМОАТ ИНСТИТУТЛАРИ БИЛАН ҲАМКОРЛИГИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ ВА ТАШКИЛИЙ МЕХАНИЗМЛАРИ.....	46
7. Ғайбуллаев Фаррух Юлдашевич ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИДА ЖАМОАТЧИЛИК НАЗОРАТИ ВА УНИНГ ҲУҚУҚИЙ ЧЕГАРАЛАРИ.....	54
8. Matkarimov Qudrat Qalandarovich ISHKI ISHLAR ORGANLARIDA QONUNLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATINING O'ZIGA HOS HUSUSIYATLARI.....	62
9. A'zamov Akbarxon Izzatbek o'g'li QASDDAN TO'LOVGA QOBILYATSIZLIKKA OLIV KELISHNING JINOIY-HUQUQIY JINATLARI, O'XSHASH JINOYATLARDAN FARQLI TOMONLARI HAMDA XORIJIY TAJRIBA.....	70
10. Хамидов Нурмухаммад Ориф угли ТОРГОВЛЯ ЛЮДЬМИ КАК ФОРМА ТРАНСНАЦИОНАЛЬНОЙ ОРГАНИЗОВАННОЙ ПРЕСТУПНОСТИ: ПОНЯТИЕ, СОЦИАЛЬНАЯ ОПАСНОСТЬ И УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	77
11. Kurbanov Ma'rufjon Mamadaminovich SUN'IY INTELLEKTDAN JINOIY MAQSADDA FOYDALANISHNING JINOYAT-HUQUQIY TAVSIFI, IJTIMOY-HUQUQIY MONIYATI.....	85
12. Насруллаев Фирдавс Сухробович ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ЭКСТРАДИЦИЯ ЖАРАЁНИДА ИЧКИ ИШЛАР ВАЗИРЛИГИНИНГ ИНСТИТУЦИОНАЛ ЎРНИ ВА ИДОРАЛАРАРО ҲАМКОРЛИК МАСАЛАЛАРИ.....	92



Matkarimov Quдрat Qalandarovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti Sud, huquqni muhofaza
qiluvchi organlar va advokatura kafedrası dotsenti,
Yuridik fanlar doktori (DSc)
E-mail: matkarimovkudrat79@gmail.com

ISHKI ISHLAR ORGANLARIDA QONUNLAR IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATINING O‘ZIGA HOS HUSUSIYATLARI

For citation: Matkarimov Kudrat Kalandarovich. SPECIFIC FEATURES OF PROSECUTORIAL SUPERVISION OVER THE ENFORCEMENT OF LAWS IN INTERNAL AFFAIRS BODIES. Journal of Law Research. 2026, 11 vol., issue 2/2.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18839321>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Ishki ishlar organlarida qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratining o‘ziga hos hususiyatlari o‘rganilgan. Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan prokuratura organlarining qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati, Huquqbuzarliklarning oldini olish va jamoat xavfsizligini ta‘minlash, Ishki ishlar organlarida qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati huquqiy mexanizmlarining shakllanishi va rivojlanishi, Ishki ishlar organlarining qonunlar ijrosini ta‘minlashdagi faoliyati bevosita huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sabablarini aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha ijobiy natijalarga erishish mumkinligi bo‘yicha fikr va mulohazalar bildirilgan.
Kalit so‘zlar: ichki ishlar organlari, huquqbuzarliklarning oldini olish, qonun ustuvorligi, inson huquqlari, jamoat xavfsizligini ta‘minlash, normativ-huquqiy hujjatlar, Prokurorlarning mustaqilligi.

Маткаримов Кудрат Каландарович,
Доцент кафедры Суд, правоохранительные органы и адвокатуры
Ташкентского государственного юридического университета
Доктор юридических наук, (DSc)
E-mail: matkarimovkudrat79@gmail.com

ОСОБЕННОСТИ ПРОКУРОРСКОГО НАДЗОРА ЗА ИСПОЛНЕНИЕМ ЗАКОНОВ В ОРГАНАХ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ

АННОТАЦИЯ

В данной статье изучены особенности прокурорского надзора за исполнением законов в органах внутренних дел. Кроме того, на основании законодательства Республики Узбекистан рассмотрен прокурорский надзор за исполнением законов, предотвращение правонарушений и обеспечение общественной безопасности, формирование и развитие правовых механизмов прокурорского надзора за исполнением законов в органах внутренних дел. Высказаны также мнения о том, что деятельность органов внутренних дел по обеспечению исполнения законов

непосредственно способствует предупреждению правонарушений, выявлению и устранению их причин, что позволяет добиться положительных результатов.

Ключевые слова: органы внутренних дел, профилактика правонарушений, верховенство закона, права человека, обеспечение общественной безопасности, нормативно-правовые акты, независимость прокуроров

Matkarimov Kudrat Kalandarovich,

Associate professor of the Department Court, law enforcement agencies
and advocacy of Tashkent State University of Law,

Doctor of Laws

E-mail: matkarimovkudrat79@gmail.com

SPECIFIC FEATURES OF PROSECUTORIAL SUPERVISION OVER THE ENFORCEMENT OF LAWS IN INTERNAL AFFAIRS BODIES

ANNOTATION

This article examines the specific features of prosecutorial supervision over the enforcement of laws in the internal affairs bodies. It also analyzes, based on the legislation of the Republic of Uzbekistan, prosecutorial oversight of the implementation of laws, the prevention of offenses and the ensuring of public security, as well as the formation and development of legal mechanisms of prosecutorial supervision within internal affairs bodies. The article further presents views and opinions on how the activities of internal affairs bodies in ensuring the enforcement of laws directly contribute to preventing offenses, identifying their causes, and eliminating them, thereby achieving positive results.

Keywords: internal affairs bodies, prevention of offenses, rule of law, human rights, ensuring public safety, normative-legal acts, regulatory legal acts, independence of prosecutors.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar doirasida Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining 17-maqsadi sifatida huquqni muhofaza qiluvshi organlarning yangi qiyofasini shakllantirish, ularning faoliyatini xalq manfaatlarini, inson qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini samarali himoya qilishga yo‘naltirish ustuvor vazifa etib belgilangani alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan ishki ishlar organlarini xalqning ishonshli himoyashisi sifatida xalqshil va professional tuzilmaga aylantirish, ularning faoliyatini aholi bilan samarali va maqsadli ishlashga yo‘naltirish, shuningdek, qonuniylikni qat’iy ta’minlovshi, oshiq va adolatli prokuratura faoliyati ushun mustahkam huquqiy asoslarni yaratish dolzarb vazifa sifatida belgilandi.

Bunda, ayniqsa, ishki ishlar organlarida qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratini yanada takomillashtirish alohida o‘rin tutadi. Zero, “Qonun — ustuvor, jazo — muqarrar” [1] tamoyilini amalda ro‘yobga shiqarish, tezkor-qidiruv va tergov faoliyati ustidan samarali nazoratni o‘rnatish hamda fuqarolarning qadr-qimmatini va erkinliklarini ishonshli himoya qilish ushun prokuror nazoratining zamonaviy va ta’sirchan shakllarini ishlab shiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining huquqni muhofaza qiluvshi organlar faoliyatini isloh qilishga oid farmon va qarorlarida belgilangan vazifalarga hamohang bo‘lib, amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy izlanishlar doirasiga kiradi.

Huquqbuzarliklarning oldini olish va jamoat xavfsizligini ta’minlash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda Ichki ishlar organlarining o‘rni alohida e’tiborga loyiqdir. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi konsepsiyasiga[2] muvofiq, 2025-yilda “Har bir mahallada huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish” ustuvor vazifa etib belgilangani ichki ishlar organlari zimmasiga yanada katta mas’uliyat yuklaydi. [3]

Bugungi kunda prokuratura organlari tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishini nazorat qilishda davlat va jamoatshilik nazoratini uyg‘unlashtiruvshi yangi tizimni joriy etish,

faoliyatda oshkorlik va jamiyat oldida hisobdorlikni ta'minlash, prokuratura tizimi boshqaruvida kollegiallik prinsiplarini mustahkamlash talab etilmoqda. Shu sababli, ishki ishlar organlarida qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish imkoniyatlarini tizimli o'rganish va amaliy takliflar ishlab shiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ishki ishlar organlarida qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati huquqiy mexanizmlarining shakllanishi va rivojlanishi O'zbekiston Respublikasining asosiy qonunshilik manbalarida – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Prokuratura to'g'risida”gi Qonun, Jinoyat-protsessual kodeksi, Jinoyat-ijroiya kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Mazkur hujjatlar prokuror nazorati institutining tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilab beradi hamda prokuratura organlarining faoliyatini tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXV bobida prokuratura faoliyatining asosiy konstitutsiyaviy tamoyillari belgilangan bo'lib, 143-moddaga muvofiq, mamlakat hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni Bosh prokuror va unga bo'ysunuvshi prokurorlar amalga oshiradi. Bu norma ishki ishlar organlari faoliyatida qonuniylik ustidan doimiy prokuror nazoratini o'rnatishning konstitutsiyaviy asosini belgilaydi. 144-moddada prokuratura organlarining markazlashtirilgan va vertikal bo'ysunuvi bo'lgan tuzilmasi belgilanib, Bosh prokurorning rahbarligi ostida barsha hududiy prokurorlar yagona tartibda tayinlanishi va boshqarilishi ta'minlangan. Bu holat prokuror nazoratining izshil va umumiy standartlar asosida amalga oshirilishini kafolatlaydi. 145-moddaga binoan, prokuratura organlari o'z vakolatlarini mustaqil amalga oshiradi hamda siyosiy neytrallikni saqlagan holda faqat Konstitutsiya va qonunlarga asoslanib ish yuritadi. Mazkur norma ishki ishlar organlarida qonun ijrosini xolis va ob'ektiv baholash imkonini beradi. Shuningdek, 146-modda jinoyatshilikka qarshi kurash bo'yisha mustaqil nodavlat tuzilmalar tuzishni taqiqlab, faqat davlat prokuraturasi va unga bo'ysunuvshi organlar orqali qonunshilikka rioya etilishi ustidan nazorat yuritilishini kafolatlaydi. Bu holat ishki ishlar tizimi ustidan bevosita va huquqiy jihatdan asoslangan nazorat faqat prokuratura organlari zimmasida ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi Qonuni prokuratura organlarining vazifalari, faoliyat tamoyillari va vakolatlari batafsil yoritilgan asosiy normativ-huquqiy hujjatdir. Ushbu “Prokuratura to'g'risida”gi Qonunning 1-moddasiga binoan, prokuratura O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar.

Prokuror nazorati — bu O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishini ta'minlash, inson huquqlari va erkinliklarini, fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida amalga oshiriladigan davlatning huquqiy nazorat faoliyatining o'ziga xos shaklidir.

Prokuror nazorati davlat faoliyatidagi mustaqil va o'zga xos turi hisoblanadi. Ushbu faoliyatni prokuratura organlaridan boshqa hech bir davlat idorasi, tashkilotlari, jamoat tashkilotlari yoinki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlari shuningdek mansabdor va yuridik shaxslar amalga oshira olmaydilar. [4]

Mazkur nazorat shakli prokuratura organlarining davlat boshqaruvida mustaqil subyekt sifatida ishtirok etishini ifodalaydi va qonun ustuvorligini ta'minlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Prokuror nazorati qonun hujjatlari va Konstitutsiyada belgilangan vakolatlar[5] doirasida, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida — qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati organlari, shuningdek, xo'jalik subyektlari, jamoat birlashmalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatida qonunlarga rioya qilinishini tekshirish orqali amalga oshiriladi.

F.Raximovning [6]ta'kidlashicha, prokuratura organlari faoliyati yo'nalishlari ikki turga bo'lingan bo'lib, birinchisi – prokuratura organlarining o'z nazorat faoliyatini amalga oshirish, ikkinchisi – prokuratura organlarining nazorat bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat yo'nalishlaridan iborat.

Shuningdek, prokurorlar ishki ishlar organlari tomonidan jinoyat va ma'muriy ishlarni ko'rib shiqish, tergov va tezkor-qidiruv tadbirlarini olib borish jarayonida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish vakolatlarga ega;

Normativ-huquqiy hujjatlarda prokurorlarning mustaqilligi, ularning vakolatlarining aniq belgilanishi va barsha davlat organlari ushun majburiyligi mustahkamlangan;

Amaliyotda bu normativ hujjatlar asosida prokurorlarning o‘z vaqtida va samarali nazorat olib borishi qonunbuzarliklarning oldini olishda va fuqarolarning huquqlarini himoya qilishda asosiy rol o‘ynaydi.

Shu bilan birga, “Ishki ishlar organlari to‘g‘risida”gi[7] Qonun ham ishki ishlar organlarining faoliyatini tartibga soluvshi asosiy manba bo‘lib, ular faoliyati ustidan prokuratura tomonidan amalga oshiriladigan nazorat mexanizmlarining huquqiy asoslarini belgilaydi. Mazkur qonunga ko‘ra, ishki ishlar organlari o‘z faoliyatida qonuniylik, oshiqlik va fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga hurmat tamoyillariga amal qilishi lozim. Prokuratura esa bu tamoyillarga rioya qilinishi ustidan tizimli nazoratni amalga oshiradi.

Ishki ishlar organlarining qonunlar ijrosini ta‘minlashdagi faoliyati bevosita huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sabablarini aniqlash va bartaraf etish bilan shambarshas bog‘liq bo‘lib, ushbu jarayonda xizmat tekshiruvlari va profilaktika shoralari muhim amaliy vosita hisoblanadi. “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, Ishki ishlar organlari jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish, kriminogen holatni baholash va jismoniy hamda yuridik shaxslarning huquqlari buzilishini oldini olish borasida kompleks faoliyat olib boradi. Shu bilan birga, qonunlar ijrosini ta‘minlashda prokuratura organlari mazkur qonunlar ijrosini bevosita nazorat qiladi, profilaktika shoralari muvofiqligini baholaydi va boshqa vakolatli subyektlar faoliyatini koordinatsiya qiladi. Xususan, prokurorlar huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvshi ishki ishlar tuzilmalarining qonuniy faoliyatini nazorat qilish orqali ularning xatti-harakatlarini huquqiy mezonlar asosida baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu esa ishki ishlar tizimida qonuniylik va javobgarlik prinsiplarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning “Yangi O‘zbekiston” strategiyasi[8] doirasida huquqni muhofaza qiluvshi organlar faoliyatini samaradorligini oshirish va qonun ustuvorligini ta‘minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mazkur hujjatlar, xususan:

- prokurorlar va ishki ishlar xodimlarining malakasini oshirish;
- ular o‘rtasida o‘zaro axborot almashinuvini avtomatlashtirish;
- ishki ishlar organlarining oshiqligi va shaffoqligini ta‘minlash

yo‘nalishida amaliy mexanizmlar ishlab shiqildi. Bu esa, prokuror nazoratini zamonaviy texnologiyalar va ma‘lumotlar bazalari bilan integratsiyalashgan holda olib borish imkoniyatini yaratdi.

Ishki ishlar organlarida qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish zarurati amaldagi statistika va mavjud muammolar tahlili asosida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. So‘nggi yillarda ishki ishlar organlari xodimlarining harakatlari va qarorlaridan norozilik bilan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yuborilgan murojaatlar soni[9] quyidagisha o‘zgarib borgan:

- 2021-yilda – 343 ta murojaat (7,0%);
- 2022-yilda – 134 ta murojaat (5,8%);
- 2023-yilda – 281 ta murojaat (7,9%);
- 2024-yilda – 151 ta murojaat (3,6%).

Yuqoridagi raqamlardan ko‘rinib turibdiki, murojaatlar soni yillar davomida sezilarli darajada o‘zgarib kelgan. Xususan, 2022-yilda murojaatlar soni kamaygan bo‘lsa-da, 2023-yilda yana ortgan. Bu esa ishki ishlar organlarida ayrim huquqbuzarlik holatlari va tartib-intizom muammolari mavjudligidan darak beradi. 2024-yilda esa murojaatlar sonining kamaygani ishki ishlar organlarida qonuniylik va tartibni ta‘minlash borasida amalga oshirilgan ijobiy o‘zgarishlar natijasidir, deb baholash mumkin.

Shu bilan birga, murojaatlar sonidagi o‘zgarishlar ishki ishlar organlarida prokuror nazoratini yanada kushaytirish va takomillashtirish zaruriyatini ko‘rsatadi. Shunki har bir murojaat – fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilayotganining, prokuratura tomonidan esa bu holatlarni o‘z vaqtida aniqlab, qonuniy shoralar ko‘rish lozimligining belgisi hisoblanadi.

Ishki ishlar organlari faoliyatida qonuniylik prinsipining ustuvorligini ta'minlash, huquqni muhofaza qiluvshi organlar o'rtasidagi o'zaro muvofiqlashtirilgan hamkorlikni kushaytirish va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari hamda erkinliklarini ishonshli himoya qilish maqsadida prokuror nazoratini takomillashtirish zarurati tobora ortib bormoqda.

Shuningdek, ayrim xorijiy mamlakatlarda hususan, Germaniya, Fransiya va AQShda ishki ishlar organlari faoliyati ustidan prokuror nazorati mustahkam institut sifatida shakllangan bo'lib, bu tajribani mahalliy sharoitga moslashtirib tatbiq etish orqali prokuror nazoratining samaradorligini oshirish mumkin.

AQShda ichki ishlar organlari faoliyati ustidan nazorat qilish tizimi ko'p darajali va o'ziga xos xususiyatlarga ega. Avvalo, mamlakatda federalizm tamoyili asosida har bir shtat o'zining ichki ishlar tizimini va unga nisbatan nazorat mexanizmlarini shakllantirgan. Shunga ko'ra, federal darajada ham, shtat darajasida ham prokuratura organlari mavjud bo'lib, ular turli darajada ichki ishlar organlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi.

AQSh prokuraturasi (Attorney's Office) [10] ichki ishlar idoralari tomonidan amalga oshirilayotgan tergov va hibsga olish, qamoqda saqlash amaliyotiga nisbatan keng vakolatlar asosida nazorat olib boradi. Shuningdek, AQShda Federal qidiruv byurosi (FBI) [11], Ichki xavfsizlik departamenti (DHS) [12] kabi idoralar faoliyati ham Adliya vazirligi huzuridagi Bosh prokuror (Attorney General) [13] tomonidan nazorat qilinadi.

Mazkur tizimda "Civil Rights Division" (Fuqarolik Huquqlari Bo'limi) [14] alohida rol o'ynaydi. Ushbu bo'lim, politsiya tomonidan fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari buzilganda, masalan, nohaq hibsga olish, qiynoq va tazyiq holatlari yuzaga kelganda, mustaqil tergov va prokuror nazoratini amalga oshiradi. Ayniqsa, politsiya tizimida tizimli diskriminatsiya yoki kuch suiste'mol qilinishi holatlari aniqlansa, butun idoraga nisbatan majburiy islohot choralarini joriy etish vakolatiga egadir.

Shuni alohida qayd etish joizki, AQShda ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyati institutlari ichki ishlar organlari faoliyati ustidan mustaqil monitoring va jamoatchilik nazoratini ham faol amalga oshirib, prokuror nazoratini to'ldirib boradi. Prokurorlarning ichki ishlar organlari ustidan olib boradigan nazorat faoliyati doirasida ommaviy ravishda sud ishlari ochilishi va xizmat tekshiruvlarining o'tkazilishi amaliyotda keng qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, ishki ishlar organlarida qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish zamonaviy huquqiy davlat qurilishi jarayonining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Takomillashtirish shora-tadbirlari esa normativ-huquqiy bazani optimallashtirish, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, malakali kadrlarni tayyorlash, ishki nazorat tizimlarini kushaytirish va jamoatshilik nazoratini kengaytirishga qaratilgan kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim. Faqatgina shunday holatda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini to'laqonli himoya qilish, davlat organlari faoliyatida qonuniylik va adolat prinsiplarini amalda ro'yobga shiqarish imkoniyati yaratiladi.

Birinchidan. Prokuror nazorati tizimida xizmat tekshiruvi o'tkazilish o'rni juda muhim bo'lib, bu xodimning xizmat majburiyatlari yoki qonunbuzarlik holatlari bo'yisha yo'l qo'yilgan xatti-harakatlarni aniqlash va huquqiy baho berish maqsadida o'tkaziladigan ishki surishtiruv shaklidir. Ammo hozirgi vaqtda xizmat tekshiruvlari shuningdek xizmat tekshiruv amaliyoti ustidan nazorat prokuratura organlari va ishki ishlar organlari o'rtasida qog'oz shaklda yuritiladi. Prokuror nazoratini samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi taklif etiladi:

"Xizmat tekshiruvini raqamlashtirish va xizmat tekshiruvlarini prokuratura organlariga integratsiyalashgan holda nazorat qilish mexanizmini joriy etish"

Taklifning maqsadi - xizmat tekshiruvlari ustidan prokuror nazoratini amalda kushaytirish, xizmat tekshiruvini raqamlashtirish, ishki ishlar organlarida qonunbuzarliklarning oldini olish, xizmat intizomi va xolislikni ta'minlashdir.

Taklifga ko'ra, xizmat tekshiruvining barsha bosqishlari:

- tekshiruv tayinlash to'g'risidagi buyruq,
- xizmat tekshiruvi tayinlangan vaqt va barcha jarayondagi hujjatlar muddatlar,
- tekshiruv jarayonidagi hujjatlar,

- yakuniy xulosalar va intizomiy shoralar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar prokuratura organlariga real vaqt rejimida elektron tarzda nazorat qilish va taqdim etilishi nazarda tutiladi.

Bu orqali:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158 son farmonining ustuvor maqsadlariga erishishni bir darajaga ko‘tarish;

- tekshiruvlarda qonuniylik va xolislik oshadi,

- prokuror nazorati bevosita va uzluksiz amalga oshiriladi,

Mazkur mexanizmni amalda joriy etish ushuni Ishki ishlar vazirligi va Bosh prokuratura axborot tizimlari o‘rtasida texnik integratsiyani ta‘minlash tavsiya etiladi. Ushbu taklifni Yo‘riqnomada aks ettirish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan. O‘zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunining 11-moddasiga muvofiq, prokuratura organlari huquqbuzarliklarning oldini olishga oid qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Ushbu vakolatning samaradorligini oshirish maqsadida, Ishki ishlar organlarining profilaktika faoliyati (profilaktik hisobda turgan shaxslar, olib borilayotgan ishlar va natijalari, statistik ma‘lumotlar) real vaqt rejimida prokuratura organlariga taqdim etilishi hamda nazorat tizimiga axborot integratsiyasi orqali ulanishi taklif etiladi.

Mazkur mexanizmning joriy etilishi orqali prokurorlar qonunshilik ijrosi ustidan bevosita tahliliy nazorat o‘rnatish imkoniga ega bo‘ladi. Shuningdek, Ishki ishlar organlarining profilaktika faoliyatida qonuniylikni kushaytirish, qonunlar ijrosi ustidan real va faol prokuror nazoratini ta‘minlash hamda profilaktika samaradorligini huquqiy asosda oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu taklifni amalga oshirish ushuni: Qonunshilikka o‘zgartirishlar kiritish – “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonunga tegishli moddalarni kiritish;

Axborot tizimlari integratsiyasi – Ishki ishlar vazirligi va Bosh prokuratura axborot tizimlarini yagona nazorat platformasiga ulash;

Mazkur taklifni qonunshilik darajasida mustahkamlash profilaktika jarayonini yanada samarali va shaffof qiladi, prokuror nazoratini esa real va ta‘sirshan mexanizmga aylantiradi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida qarori va “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni ijrosi nazorati ijobiy taminaladi.

Uchinchidan. Ishki ishlar organlari faoliyati ustidan prokuror nazoratini samarali tashkil etish ushuni yagona nazorat mexanizmni ishlab shiqilishi lozim. Ushbu nazorat mexanizm prokurorning qachon, qanday holatda va qanday shaklda nazorat o‘tkazishini aniq belgilaydi. Nazorat obyekt sifatida ishki ishlar organlarining normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilishi, xizmat faoliyatining qonuniyligi va xodimlarning vazifalarni bajarish holatlarini olinadi. Tekshirish shartlari sifatida qonun buzilishi haqidagi murojaatlar, jinoyat sodir etilganligi xabarlar va davlat organlarining taqdimnomalari asos qilib olinadi. Tekshirish turlari rejalashtirilgan, rejasiz va murojaat asosidagi tekshiruvlarga bo‘linadi. Har bir tekshiruv yakuni bo‘yicha rasmiy hisobot tayyorlanadi va unda aniqlangan kamshiliklar, qonunbuzarliklar hamda ularning bartaraf etish shoralari ko‘rsatiladi. Ushbu standartlar qonunshilik darajasida mustahkamlanib, prokuratura va ishki ishlar organlari o‘rtasida aniq hamkorlik mexanizmlari o‘rnatiladi. Shu orqali nazorat samaradorligi oshirilib, qonun buzilishlarining oldi olinadi.

To‘rtinchidan. Ishki ishlar organlari xodimlari bilan tuziladigan mehnat shartnomasi tuzilishi va bekor qilinishi jarayonlarida qaror kuchga kirgan vaqtdan boshlab keshiktirilmasdan, elektron axborot tizimi orqali avtomatik ravishda tegishli hududiy prokuratura organlariga yuborilishi, bunda qabul qilish va bekor qilish to‘g‘risidagi buyruqlar, lavozim, xizmat staji, shaxsiy ma‘lumotlar, intizomiy tarix, tegishli normativ huquqiy hujjatlarga havola, tushuntirish xati va xizmat tekshiruvi materiallari elektron shaklda taqdim etilishi tavsiya etiladi. Prokuror ushbu ma‘lumotlar asosida qonuniylikni tahlil qilib, zarur hollarda qarorni bekor qilish yoki xodimning huquqlarini tiklash

yuzasidan qonuniy taqdimnoma kiritish vakolatiga ega bo‘ladi. Mazkur jarayon Ishki ishlar vazirligi va Bosh prokuratura o‘rtasida integratsiyalashgan axborot tizimi orqali real vaqt rejimida amalga oshiriladi. Mazkur mexanizm orqali quyidagi muammolarga yechim topiladi: byurokratik kechikishlar va oshiqcha qog‘ozbozlik bartaraf etiladi; mehnat shartnomalarining tuzilishi va bekor qilinishi jarayonlari tezkor va shaffof amalga oshiriladi; ichki ishlar organlarida noqonuniy ishdan bo‘shatish yoki qabul qilish holatlari real vaqt rejimida nazorat qilinadi; qonunga zid qarorlar aniqlanganda tezkor choralar ko‘riladi; nazorat samaradorligi oshadi; korrupsiyaviy xavflar kamayadi; xodimlarning huquqlari himoya qilinadi; integratsiyalashgan tizim orqali Ichki ishlar vazirligi va Bosh prokuratura o‘rtasida tezkor aloqa ta‘minlanadi.

Beshinchidan. Ishki ishlar organlari faoliyati ustidan jamoatshilik nazorati tizimi yetarli darajada rivojlanmagan. Ishki ishlar organlari faoliyati ustidan jamoatshilik nazoratini kushaytirish maqsadida, Ishki ishlar vazirligi va uning hududiy bo‘limlarida jamoatshilik asosida doimiy faoliyat yurituvshi maslahat-kengash organi hisoblangan, soha olimlari, faxriylari va jurnalistlardan iborat jamoatshilik kengashlari tuzish zarur. Bu kengashlar ishki ishlar organlari faoliyatida qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan jamoatshilik nazoratini amalga oshirish, soha bo‘yicha ijtimoiy fikrni o‘rganish va tizimli monitoring olib borish kabi vazifalarni bajaradi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. 17-maqсад (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026”, No. PF-60 dated 28.01.2022. Goal 17)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni, 29.11.2021 yildagi PF-27-son (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On approval of the Concept of Public Security of the Republic of Uzbekistan and measures for its implementation”, No. PF-27 dated 29.11.2021)
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori, 03.01.2025 yildagi PQ-1-son (Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan “On measures to create a safe environment in the neighborhoods of the republic in 2025 and further increase the effectiveness of the system of timely prevention of crimes”, No. PQ-1 dated 03.01.2025)
4. Prokuror nazorati. Darslik. Umumiy qism. 2012. O.M.Madaliyev. 37-bet (Prosecutorial supervision. Textbook. General part. 2012. O.M. Madaliyev. Page 37)
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. XXV bob. (Constitution of the Republic of Uzbekistan. Chapter XXV.)
6. Raximov F.X. Prokuror nazorati va uning yo‘nalishlari: ilmiy-amaliy maqolalar to‘plami 2008. – B. 115. (Rakhimov F.Kh. Prosecutorial supervision and its directions: collection of scientific and practical articles 2008. – P. 115.)
7. O‘zbekiston Respublikasining “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida” gi Qonuni, 16.09.2016 yildagi O‘RQ-407-son (The Law of the Republic of Uzbekistan "On Internal Affairs Bodies", No. O'RQ-407 dated 16.09.2016)
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026”, No. PF-60 dated 28.01.2022)
9. <https://anticorruption.uz/uz> (<https://anticorruption.uz/uz>)
10. United States Code, Title 28, Section 547, Powers of United States Attorneys
11. United States Code, Title 28, Section 533, Investigation; appointment of officials
12. United States Code, Title 6, Section 111, Establishment of the Department of Homeland Security

13. United States Code, Title 28, Section 503, Attorney General

14. United States Department of Justice, Civil Rights Division

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida qabul qilinadi va Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan bo'lishi shart. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
2. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni va e-mail, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
3. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida kamida 60 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
4. Keyingi qatordan 6-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
5. Keyingi qatordan asosiy matn umimiy so'zi minimal 2000 ta bo'ladi.
6. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim va havolalar asosiy matnda bo'lishi kerak [1, B.25].
7. Maqolada keltirilgan dalillarning to'g'riligi uchun muallif mas'ul, plagiat holati taqiqlanadi.
8. Web of science, Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статья принимается на узбекском, английском и русском языках и должна быть оформлена в Microsoft Word шрифтом Times New Roman, размер 12, межстрочный интервал — 1, поля со всех сторон — 2 см. Абзацный отступ — 1,25 см; выравнивание по ширине и переносы слов должны быть включены автоматически.
2. В первой строке справа указываются фамилия, имя и отчество автора; во второй строке — место работы автора, должность, ученая степень и звание, а также e-mail; в третьей строке по центру страницы крупным и жирным шрифтом — название статьи. Эти сведения должны быть приведены на узбекском, английском и русском языках.
3. Ниже дается аннотация на узбекском, английском и русском языках, содержащая не менее 60 слов на каждом языке.
4. Далее приводятся 6–10 ключевых слов на узбекском, английском и русском языках.
5. Далее основной текст: общий объем текста должен быть не менее 2000 слов.
6. Полный список литературы должен быть приведен после основного текста в алфавитном порядке; ссылки должны присутствовать в основном тексте в формате [1, C.25].
7. Автор несет ответственность за достоверность приведенных в статье доказательств; плагиат запрещен.
8. Рекомендуется цитирование журналов из база данных Web of Science и Scopus.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles are accepted in Uzbek, English and Russian and must be prepared in Microsoft Word using Times New Roman font, size 12, single line spacing, with 2 cm margins on all sides. First-line indent is 1.25 cm; text should be justified and word hyphenation/line breaks set to automatic.
2. In the first line on the right: the author's surname, given name and patronymic; in the second line: the author's affiliation, position, academic degree and title, and e-mail; in the third line centered on the page: the article title in bold and uppercase (or bold). These details must be provided in Uzbek, English and Russian.
3. Next, provide an abstract in Uzbek, English and Russian of at least 60 words in each language.
4. Next, provide 6–10 keywords in Uzbek, English and Russian.
5. Next, the main text: total word count must be at least 2000 words.
6. The full list of references must appear after the main text in alphabetical order, and citations should appear in the main text in the format [1, P.25].
7. The author is responsible for the accuracy of the evidence presented in the article; plagiarism is prohibited.
8. It is advisable to include citations from journals indexed in Web of Science and Scopus.